Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

MUMTOZ BADIIY MATNLARDA MILLIY-MADANIY BIRLIKLARNING TARJIMA STRATEGIYALARI

Feruza Davlatovna Sapaeva*
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jahon adabiyoti kafedrasi professori
✉ feruzasapayeva86@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mumtoz adabiy matnlar tarjimasiga xos nazariy va amaliy muammolar Maxtumquli Firog'iy asarlarining o'zbek, qoraqalpoq va ozarbayjon tillariga amalga oshirilgan tarjimalari misolida atroflicha tahlil qilinadi. Mumtoz she'riy matnlar tarjimasi jarayonida, ayniqsa, shoirning asl turkman tilida bitilgan misralarini qardosh turkiy tillarga o'girish masalasi alohida ilmiy e'tibor talab etadi. Chunki genetik va tipologik jihatdan yaqin bo'lgan tillar o'rtasidagi tarjima jarayoni tashqi o'xshashliklarga qaramay, semantik, stilistik va poetik darajalarda bir qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Maxtumquli ijodini o'zbek, qoraqalpoq va ozarbayjon tillariga tarjima qilish jarayonida ayrim leksik birliklar, obrazlar tizimi, ramziy ifodalar hamda she'riy ohangning to'laqonli aks etmasligi kuzatiladi. Natijada, ba'zi hollarda tarjima matnida ma'no noaniqliklari yoki asl mazmunning qisman o'zgarishi holatlari yuzaga keladi. Mazkur maqolada ana shu muammolar tizimli ravishda yoritilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar

Maxtumquli, mumtoz matn, she'r, badiiy adabiyot, tarjima muammolari, shakl va mazmun, asliyat, til vositalari, o'zbek, qoraqalpoq va ozar tillari, aruz va barmoq vazni, Qur'oni Karim va Islom madaniyati.

DOI: 10.5281/zenodo.21743610

KIRISH

Ma'lumki, turkiy xalqlar adabiyotida mumtoz matnlarning shakllanish va taraqqiyot jarayoni asrlar davomida arab va fors tillari hamda ularning boy adabiy merosi ta'sirida kechgan. Shuning uchun ham Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Umar Xayyom, Ogahiy, Berdaq kabi mumtoz adabiyot namoyandalari ijodida kuzatilganidek, turkiy xalqlar adabiy ijodida arabcha va forscha so'z va iboralarning ko'plab uchrashi tabiiy holdir. Bu til qatlamlari nafaqat lug'at tarkibi, balki uslubiy va ma'naviy-mafkuraviy qatlam sifatida ham muhim o'rin tutadi. Biroq amaldagi tarjimonlarning katta qismi turk, ozar, turkman, qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq tillarini ma'lum darajada bilgan bo'lsalar-da, mumtoz matnlarda uchraydigan arabcha va forscha leksemalarning semantik va stilistik xususiyatlarini to'liq anglab yetmaydi. Bu esa tarjima jarayonida noaniqlik va taxminga asoslangan talqinlarning paydo bo'lishiga, xususan soxta ekvivalent, tusmol ekvivalentlar domiga tushib qolishga ham olib keladi. Shu sababli bunday tarjimalarda ma'no buzilishlari, noto'g'ri talqinlar va kontekstga mos kelmay qolgan izohlarning ko'pligi kuzatiladi. Mazkur kamchiliklar, afsuski, yaqin turkiy tillardan tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimonlar faoliyatida deyarli umumiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, turkman xalqining atoqli shoiri va mutafakkiri Maxtumquli, ozarbayjon adabiyotining yirik vakillari Nasimiy va Voqif, shuningdek, qoraqalpoq yozma adabiyoti bunyodkori Berdaq asarlarining turli tarjimalarini o'rganganda ham xuddi shunday ma'no xatolari va talqin nuqsonlarining uchrashi bu fikrni yanada tasdiqlaydi. Aynan ushbu holat – turkiy mumtoz matnlardagi arab va fors leksikasini noto'g'ri anglash oqibatida sodir bo'layotgan talqin xatolarining keng tarqalganligi, mumtoz matnlarda qayta tarjima talablari, soxta ekvivalentlar tarjimasi bilan bog'liq qusurlar, tarjimada mumtoz matnlarga xos uslubni aks ettirish, milliy xos so'zlar va realiyalar tarjimasi

murakkabliklari, tarjimada diniy-irfoniy termin-tushunchalarni to‘g‘ri aks ettirish bilan bog‘liq masalalar – bizni ushbu muammoni ilmiy asosda ko‘tarib chiqishga undagan omillardan biridir.

Tarjimashunos E.Ochilovning ushbu masalaga oid tadqiqotlarida “yaqin tillardan tarjimada arabiy va forsiy so‘zlar tarjimasida to‘rt holatni kuzatamiz: birinchisi – o‘zi tushunmagan so‘zni bilib-bilmay noto‘g‘ri talqin qilish, ikkinchisi – o‘quvchiga tushunarli-tushunarsizligidan qat’i nazar so‘zlarni hech qanday sharhu izohsiz aynan qoldirish, uchinchisi – tarjimonning o‘zi tushunmagan so‘zlarni saqlab qolib, ularga izoh berishi, to‘rtinchisi – asrlar davomida ma’no doirasini toraytirgan yo kengaytirgan, ba’zida hatto o‘zgartirgan so‘zlarni o‘zicha qoldirish orqali o‘quvchini chalg‘itishdir” [E.Ochilov, 1], – deyiladi. Qayd etilgan ushbu kuzatuvlarning deyarli barchasi Maxtumquli she’riy merosining qardosh tillarga tarjimalarida ham ko‘zga tashlanadi. Shu ma’noda, mumtoz matnlar tarjimasi bilan bog‘liq masalalar, shoir asarlaridagi arabiy va forsiy qatlamning tarjima jarayonida qanday semantik siljishlarga uchrashi mumkinligini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mumtoz matn tarjimashunosligida yaqin tillardan tarjima qonuniyatlari va prinsiplari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, bu boradagi muammolar oxirigacha hal qilinmaganligi uchun turk, ozarbayjon, tatar, boshqird, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq kabi qardosh xalqlar adabiyotidan qilingan tarjimalarni goh tabdil, goh tarjima deb kelinayapti. Xususan, mumtoz she’riyat tili asrlar davomida chuqur ishlangan, sayqal topgan – ulardagi qadim turkiy, arab va fors so‘zlarining aksariyati barcha turkiy tillarda uchraydi. “Qardosh tillarda bitilgan she’riy asarlarning juda katta qismi shunday xususiyatga egaki, ularning matnidagi so‘zlarning qariyb barchasi ikkinchi tilda ham uchraydi va shunga ko‘ra tarjima tilida mavjud bo‘lmagan ayrim so‘zlarni almashtirish yo‘li bilan ag‘darish orqali adekvatlikka erishish ham mumkin. Biroq bu “almashtirish” mexanik yumush bo‘lmay, aksincha, ko‘pgina hollarda mutarjimni san’atkor sifatida saralaydigan og‘ir ijodiy izlanishdir” [Исомиддинов З., 2].

Masalaning ikkinchi tomoni – til bilmagan tarjimon uzoq tillardan tarjimaga qo‘l urmagani holda, yaqin tillardan tarjimada til omili ko‘pincha ikkinchi planga suriladi. Holbuki, “til bilish tarjimonlikning birinchi sharti, bu san’atning alifbesi emasmi?” [Исомиддинов З., 2, 162.].

Natijada milliy xos so‘zlar va soxta ekvivalentlar domiga tushib qolgan tarjimonlar ko‘pdan-ko‘p xato-nuqsonlarga yo‘l qo‘yadilar. Uzoq tillardan tarjimadan ko‘ra yaqin tillardan tarjima qiyinroq, chunki bundan tillararo o‘xshashliklar tarjimonlarni aldab qo‘yadi deb ayyuhannos solayotgan tarjimashunoslar[1] bu kamchiliklarning barchasi tarjimonlarning til bilmasligidan kelib chiqishini hisobga olmaydilar. Misol uchun, Maxtumqulining “*Габахатдыр йүзлерим”* (МСЭ,1,221) misrasini J.Sharipov “*Қабоҳатдир юзларим”* (ТА, 467) deb tarjima qiladiki, o‘zbek tilida yuzga nisbatan *қабоҳат* so‘zi ishlatilmaydi. Turkman tilida bu so‘zning *yomon, yaramas* ma’nosidan tashqari, *uyatli, nomus, sharmanda* kabi ma’nolari ham borki (ТКЭС,76; ТРС,664), bu o‘rinda o‘zbek tili adabiy jarayoni uchun xos so‘z sifatida shu ma’nosi muvofiq keladi:

“*Уятлидир юзларим*”.

E.Ochilov ham negadir uni “*Ёқимсиздир юзларим*” (БН, 471), deb xato tarjima qiladi.

Turkman tilida *атмак* so‘zining *етишмоқ, эришмоқ* degan ma’nosi ham bor (ТРС,57). Shuning uchun:

“*Кимлер бу дүнйәде ыкбал атмышдыр”* (МСЭ,2,83) misrasini

“Кимлар бу дунёда бахтга эришгандир”

deb tushunish mumkin. “*Кимлар бу дунёда иқбол отмишдир*” – J.Sharipov tarjimasi (ТА,469) misrasida esa uslubiy g‘alizlik mavjud. Chunki o‘zbek tilida “iqbol otmoq” degan tushunarsiz ibora yo‘q.

Tarjimonlar ba’zan o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan xato, ma’noni xiralashtiradigan, mavhumlashtiradigan so‘zlarni ishlatishadi. Chunonchi:

Asliyatda:

Гара гарганың перзенди

[1]Рыльский М.Ф. Художественный перевод с одного славянского языка на другой. – М.: изд. АН СССР, 1958. С. 8; Чуковский К.И. Высокое искусство. – М.: Советский писатель, 1968. С. 341-342; Кундзич О. Слово и образ (Литературно-критические статьи). – М.: Советский писатель, 1973. С. 32-35; Юсупов Ж. К проблеме перевода с родственного языка в аспекте воспроизведения национального своеобразия оригинала. АКД. – Т., 1981. С. 9-10 ва бошқалар.

Гөзүне *сурат гөрүнер* (МШ,1,247).

J.Sharipov tarjimasi:

Қора қарғанинг фарзанди

Кўзига *сурат кўринар* (ТА,292).

Bu yerda shoir *“Қора қарғанинг боласи ҳам кўзига оппоқ (яъни гўзал) кўринади”* degan fikrni ifodalamoqda. O‘zbek tilida esa shu ma’no yarq etib chiqmagan, chunki *сурат кўринар* iborasi bunday ma’noni bermaydi. Agar tarjimon matnga ijodiy yondashib, ikkinchi misrani *“Кўзга хушсурат кўринар”* deb tarjima qilganida maqsadga erishgan bo‘lar edi. Ayni jihatdan *E.Ochilov* tarjimasini ma’qullash mumkin:

Қора қарғага фарзанди

Гўзал, *хушсурат кўринар* (БН, 332).

XULOSA

Tadqiqotda mumtoz matnlar tarjimasi Maxtumquli she’rlarining o‘zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon tillaridagi bir necha tarjimalarini qiyosiy o‘rganish asosida turkman tilidan tarjima misolida yaqin tillardan tarjimaning yillar davomida yetilgan va o‘z yechimini kutib yotgan ana shunday muammolarini hal etishga harakat qilinadi. Tadqiqotda tanqidiy ruhning kuchliligi ham aynan mumtoz adabiy matn tarjimalarning talab darajasida emasligi bilan izohlanadi. Bu xil nuqsonlarni boshqa qardosh xalqlar adabiyotidan tarjimalarni ko‘p uchratamizki, ularning oldini olish o‘zbek tarjimashunosligining kun tartibidagi kechiktirib bo‘lmas masalalari sirasiga kiradi. Tadqiqot mavzuining dolzarbligi xuddi shu bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Ochilov E.Z. Mumtoz adabiyot namunalari tarjimasi muammolari. “Tarjimashunoslari forumi – 2022” // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-kitob. –Toshkent: TDSHU, 2022. – B. 278-285.
2. Исомиддинов З. “Алдоқчи сўзлар” билан баҳс // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-к. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 173.